

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO‘Z BIRIKMASIGA TA’RIF, TAVSIF VA TASNIF MASALASI

Abdullayeva Oqila Xolmo‘minovna

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili
va adabiyoti universiteti katta o‘qituvchisi.
abdullayeva.oqila@navoiy-uni.uz

Xudayarova Sabura Shuxrat qizi

Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi 1-kurs magistranti.
xudayorovasabura@navoiy-uni.uz

Annotatsiya. O‘zbek tilshunosligida gaplarni tashkil qilish va sintaktik tahlilini amalga oshirishda so‘z birikmasi muhim o‘rin tutadi. So‘z birikmalarining tuzilish tarkibini aniqlash, bog‘lanish usul va yo‘llarini tahlil qilish bugungi kunda ham murakkab hisoblanadi. Mazkur tadqiqotimizda o‘zbek tilshunosligidagi so‘z birikmalarining ta’rif va tavsiflari o‘rganildi, klassifikatsiya masalasi tahlil qilindi, muammoli jihatlari yoritildi, misollar orqali dalillandi.

Kalit so‘zlar: so‘z birikmasi, qo‘shma so‘z, bitishuvli so‘z birikmasi, boshqaruvli so‘z birikmasi, moslashuvli so‘z birikmasi.

Annotation. In Uzbek linguistics, word combinations play an important role in organizing sentences and performing syntactic analysis. Determining the structure of word combinations, analyzing the methods and ways of connection is still difficult today. In this study, definitions and descriptions of phrases in Uzbek linguistics were studied, the issue of classification was analyzed, problematic aspects were highlighted, and evidence was provided through examples.

Keywords: phrase, compound word, a conjugational phrase, managed phrase, matching phrase.

Аннотация. В узбекской лингвистике словосочетания играют важную роль в организации предложений и выполнении синтаксического анализа. Определить структуру словосочетаний, проанализировать способы и способы связи и сегодня сложно. В данном исследовании были изучены определения и описания словосочетаний в узбекском языкознании, проанализирован вопрос классификации, выделены проблемные аспекты, приведены доказательства на примерах.

Ключевые слова: фраза, сложное слово, спряжение фраза, управляющая фраза, совпадающая фраза.

Kirish. Tilshunoslar tomonidan tilning grammatik sathi o'rganilib tadqiq qilinarkan, tildagi sintaktik munosabatlar, sintaktik qurilish va turli sintaktik jarayonlar yuzasidan fikr-mulohazalar tahlilga tortiladi. Tilshunoslikda shu kabi barcha jarayonlar sintaksis bo'limida qamrab olinadi va o'rganiladi. Tilshunoslik fanida sintaksis so'z birikmasi sintaksisi va gap sintaksisi qismlariga bo'lib o'rganilishi so'z birikmasining tildagi funksiyasini alohida belgilab olgan holda tahlil va tadqiq etishni taqozo etadi. So'z birikmasi haqida fikr yuritganimizda, so'z birikmasining barcha jihatlarini ochib beruvchi turli nazariyalar e'tiborimizni tortadi. Tilshunos olimlar so'z birikmasi predmet, harakat birligi va hokazolarni ifodalash qobiliyatiga ega bo'lgan, yagona murakkab ma'nolarni ifodalaydigan, sintaktik jihatdan tashkil topgan va semantik tomondan bir butun hisoblangan ikki mustaqil so'zning birikuvchi deya ta'rif beradilar [Sharipov, 1918, 8]. Bu ta'rif so'z birikmasi uchun berilgan umumiy ta'rifdir. So'z birikmasining boshqa jihatlarini ochib berishda turli yondashuvlarga tayangan holda ko'plab bir-biriga mos keladigan, shu bilan birga bir-biridan farq qiladigan fikrlarni bildiradilar. Dastlab so'z birikmasi va boshqa til birliklari o'rtasidagi farqli va o'xshash jihatlari yuzasidan ilgari surilgan nazariy qarashlarni ko'rib o'tamiz.

Asosiy qism.

So‘z va so‘z birikmasi. So‘z ham, so‘z birikmalari ham tilda juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan birliklardir. So‘z va so‘z birikmalari o‘rtasida ko‘p jihatdan o‘xshashliklar mavjud. Bu o‘xshashliklar asosan quyidagilardan iboratdir: tilning asosini so‘zlar tashkil etadi. Lekin har bir so‘z konkret bir ma’no ifodalagani bilan hali u tugal emas. So‘zlar bir-birlari bilan munosabatga kirishib, gap bo‘lgandagina tugal ma’no ifodalaydilar va nutq shakliga kiradi. Lekin so‘zlar gap tarkibida xuddi munchoqni ipga tergani kabi birikmaydilar, ular gruppalashadi, so‘z birikmalari deb ataluvchi ma’lum qurilish xarakteriga ega bo‘lgan so‘z gruppalari o‘zaro birikadi. So‘zlarning ana shunday birikuvlaridagina gap paydo bo‘ladi [Sharipov, 1918, 13]. Xullas, so‘zlar gap ichidagina yashaydilar va shundagina katta ahamiyatga ega bo‘ladilar. Bu jihatdan so‘z birikmalari ham so‘zlarga juda yaqin turadi. Ular ham nutqda, gapda yashaydilar. So‘zlar turlanadilar, tuslanadilar, o‘z formalarini o‘zgartiradilar. So‘zlarga xos bo‘lgan bu xususiyat so‘z birikmalarida ham saqlanadi. So‘z birikmalarining bosh so‘zi so‘z birikmasi tarkibida ham turlanish, tuslanish, forma o‘zgartirish xususiyatini saqlaydi. Natijada so‘z va so‘z birikmalarining paradigmasi vujudga keladi. Qiyoslang:

Kitoblar, kitobim, kitobing, kitobi, kitobimiz va hokazo. Mening kitobim, sening kitobing, uning kitobi, bizning kitobimiz, sizning kitobingiz;

Maktabga bordim. Maktabga maktabga bordi. Maktabga bordik va hokazo.

So‘zlar leksik, grammatik xususiyatlariga ko‘ra odatda so‘z turkumlariga ajratiladi, klassifikatsiya qilinadi. So‘z birikmalari kamida ikki so‘zning birikuvidan tashkil topib, ulardan biri bosh so‘z sanaladi. Bosh so‘z so‘z birikmasining asosini, yadrosini tashkil etadi. Bosh so‘z qanday so‘z turkumiga mansub so‘z bilan ifodalanganligiga ko‘ra so‘z birikmalari ham klassifikatsiya qilinadi (otli birikmalar, fe‘lli birikmalar, ravishli birikmalar va hokazo). [Sharipov, 1918, 15] Demak so‘z birikmalarining klassifikatsiyasi so‘zlarga, ularning leksik, grammatik xususiyatlariga bog‘liq. Bu esa so‘z va so‘z birikmalari o‘rtasida bog‘liqlik, yaqinlik

borligidan dalolat beradi va ularni bir-birlariga yaqinlashtiradi. Omonimiya faqat soʻzlarga xos xususiyat. Soʻz birikmalari ham leksik-semantik xususiyatga ega, lekin ular soʻzlar kabi tilda doimiy yashamaydi, faqat nutq protsessida tashkil topgani uchun oʻsha vaziyatning oʻzidagina, shu gap tarkibidagina biror murakkab maʼno ifodalash uchun xizmat qiladi. Shuning uchun omonimiya hodisasi soʻz birikmalari uchun xos emas [Sharipov, 1918, 16]. Biror tushuncha soʻz orqali ifodalanganda bir soʻz ishtirok etadi. Soʻz birikmasida ham xuddi soʻz kabi biror tushuncha ifodalanadi, lekin bu tushuncha bir soʻz bilan emas, leksik va grammatik jihatdan aloqaga kirishgan birdan ortiq soʻzlar - soʻz birikmalari orqali ifoda etiladi. Soʻz birikmasi va soʻz yuzasidan ishlab chiqilgan nazariyalarda soʻz birikmalari ham soʻzlar kabi narsa, belgi, harakatni atashga xizmat qiladi. Lekin soʻz leksik hodisa, soʻz birikmasi grammatik hodisadir. Soʻz birikmasi narsa, belgi yoki harakatni yakka holda emas, balki ikki va undan ortiq soʻzlarning oʻzaro aloqaga kirishuvi orqali ifodalaydi, deya taʼrif berish bilangina chegaralanadi [Anorbekova, Mirzayeva, 2011, 171]. Tilshunos olimlar R.Sayfullayeva, B.Mengliyevlar bu borada quyidagi nazariy qarashlarni bildirgan: nutqda tushunchalarni aniqroq va muayyanroq ifodalash zarurati tugʻiladi. Bu esa nisbiy noaniq tushuncha ifodalovchi soʻzdan nisbiy aniq tushuncha ifodalovchi soʻz birikmasini afzal qilib qoʻyadi [Sayfullayeva, Mengliyev, 2009, 305]. Qiyoslang: *Oʻqimoq, tez oʻqimoq*. Keyingi nutqiy hosilada harflarni urishtirib, maʼnosini tushunish harakati *oʻqimoq* soʻziga nisbatan aniqroq. Chunki unga *tez* soʻzi koʻmaklashgan. Koʻrinadiki, soʻz ham, soʻz birikmasi ham tushuncha ifodalaydi. Soʻz ifodalaydigan tushuncha noaniq. Demak, kengroq (masalan, *oʻqimoq* felida harakat tez ham, sekin ham boʻlishi mumkin), soʻz birikmasida esa ikki tushuncha oʻz mustaqilligini saqlagan holda nisbiy aniq va muayyan harakat (harflarni tez urishtirib, maʼnosini tushunish) ifodalangan. Demak, soʻz oʻz maʼnoviy imkoniyatini toʻlaroq va ravshanroq namoyon qilishi uchun boshqa bir mustaqil soʻzga ehtiyoj sezadi. Bundan tashqari soʻz birikmalarining

xususiyatlarini guruhlarga ajratib umumlashtiradi [Sayfullayeva, Mengliyev, 2009, 306]:

- a) birdan ortiq mustaqil soʻz;
- b) aʼzolarining maʼnoviy va grammatik jihatdan mosligi;
- d) tobelik;

e) tushuncha ifodalash. Soʻz birikmasi bu toʻrt belgisining har biri bilan oʻziga yondosh hodisalarga oʻxshaydi va bir vaqtning oʻzida farqlanadi. Masalan, birdan ortiq mustaqil soʻzdan tashkil topganligi bilan soʻzdan farq qilsa, tushuncha ifodalashi bilan oʻxshashlik kasb etadi.

Soʻz birikmasi va qoʻshma soʻz

Mazkur til birligi haqida maʼlumot berilgan soʻz birikmasi soʻzdan koʻra kengroq tushunchani ifodalaydi, yaʼni narsa-buyum yoki harakatni taʼriflab, tavsiflab ifodalaydi yoxud harakat obyektini ham koʻrsatadi [Muhiddinova, Xudoyberganova, 2006, 133]. Qoʻshma soʻzlar esa bir tushunchani ifodalaydi. Ajratib yoziladigan qoʻshma soʻzlar soʻz birikmalariga juda oʻxshaydi. Farqi shundaki, qoʻshma soʻzlar bir bosh urgʻu bilan aytiladi va bitta soʻroqqa javob beradi. Soʻz birikmasida har bir soʻz alohida urgʻu oladi va ayrim soʻroqqa javob boʻladi. Soʻz birikmalari qoʻshma soʻzlar hosil boʻlishi uchun asosdir. Deyarli barcha qoʻshma soʻzlar soʻz birikmalaridan shakllangan [Muhiddinova, Xudoyberganova, 2006, 134].

Baʼzi elementlar har jihatdan juda mustahkam bogʻlanib, bir soʻz tusida boʻlishi ham mumkin. Bunday vaqtda oʻsha kompleksdagi element soʻzlar orasida sintaktik munosabatlar boʻlmaydi, ular ayrim sintaktik funksiyani bajarmaydi, balki butun birikma bir vazifani bajaradi, maʼnoda maxsuslanish boʻladi. Bu kompleks bir soʻz kabi qaraladi [Gʻulomov, Asqarova, 1965, 11]. Masalan: *temir yoʻl qurmoq* (bir birikma: temir va yoʻl elementlarining ikkalasi birlikda bir soʻz hukmidadir). Bu jihatdan baʼzan soʻz birikmasi bilan qoʻshma soʻz bir shaklda boʻladi. Bularni grammatik semantik xususiyatlar orqali aniqlaymiz. Masalan: *oq qovun*: 1) soʻz

birikmasi (oq tUSDagi har qanday qovun); 2) qo'shma so'z (qovunning bir turi, chog'ishtiring: *qora qozon, qora qant, oq olma, qizil olma, qizil gul*). Bu tipdagi bir xillik ko'pincha aniqlovchi + aniqlanmish formasidagi birikishda uchraydi. Shu kabi o'ziga xos nazariy qarashlar tilshunos olimlar R.Sayfullayeva, B.Mengliyevlar tomonidan e'lon qilingan manbalarda ham o'z aksini topadi [Sayfullayeva, Mengliyev, 2009, 306].

SBda ma'nolar o'zaro munosabatga kirishar ekan, bunda ular yaxlitlanib, bir vujudga aylanib ketmaydi. Bir-biriga qancha yaqinlashmasin, baribir o'z mustaqilliklarini saqlab qoladi. Masalan: *toza havo* birikmasida bir ma'no ikkinchisiga muayyanlik kiritish uchun xizmat qiladi, lekin baribir bunda ikki tushuncha mavjud. Ikki tushuncha orasidagi munosabat ma'lum bir me'yor chizig'idan o'tsa, ular yaxlit tushunchaga aylanadi va bir butun holda yangi ma'no anglatadi. Masalan: *belbog'* so'zi dastlab belning bog'i birikuv shaklida bo'lib, bunda ikki tushuncha munosabati (hokim tobeligi) mavjud. Biroq bu ularning yaxlitlanishi darajasiga yetmagan. *Belbog'* so'zida esa munosabatning me'yor chizig'idan keyingi holatiga duch kelamiz. So'zlarning alohida ko'rinishi bo'lgan qo'shma so'zlar aslida so'z birikmalari qismlarining yaxlitlanishi so'z birikmasining ma'noviy taraqqiyoti mahsuli [Sayfullayeva, Mengliyev, 2009, 307]. So'z birikmasi va qo'shma so'zning aynan shu jihatlari kengroq tahlil qilishga harakat qilamiz: tilning lug'at boyligidagi so'zlarning hammasi bir tipdagi so'zlar – sodda so'zlar bo'lganda edi, so'z va so'z birikmalarining chegaralanishi bilan kifoyalanishi mumkin bo'lar edi. Aksincha tilda ikki, uch va hatto undan ortiq o'zak-negizlardan tashkil topuvchi so'zlar – qo'shma so'zlar ham mavjud. Sodda so'zlarning tuzilishlariga ko'ra birikmalardan osonlik bilan farqlab olish mumkin. Lekin qo'shma so'zlar tuzilishiga ko'ra so'z birikmalariga juda yaqin. Shuning uchun ularni bu jihatdan, sodda so'zlardagi kabi tuzilishiga, strukturasi ko'ra bir – biridan farqlash ancha murakkab. Xullas, qo'shma so'zlar ham, sodda so'zlar kabi tilning butun shakllangan birligi. Shuning uchun qo'shma so'zlar tuzilish jihatidan

va tarkibiga ko‘ra so‘z birikmalariga o‘xshashlar ham ular so‘z birikmasi emas, balki so‘zdir. Shunga ko‘ra, qo‘shma so‘z va so‘z birikmasi degan tushunchalarni tubdan bir-biridan farqlamoq va chegaralamoq kerak. Qo‘shma so‘zlarning ko‘pchilik va asosiy qismi so‘z birikmalaridan kelib chiqqan yoki so‘z birikmalari modeli asosida yasalgan. Agar shunday ekan, o‘sha so‘z birikmalarining komponentlari qanday sintaktik aloqaga kirishgan bo‘lsa, qo‘shma so‘zga aylangan vaqtda ham o‘sha sintaktik aloqa, turg‘un qo‘shma so‘zlarda turli darajada saqlanadi. Masalan: *asalari, qovoqari, oybolta, qo‘lqop* [Sharipov, 1918, 27]. Shu o‘rinda keltirilgan fikr e‘tiborimizni tortadi. So‘z birikmasi asosida shakllangan qo‘shma so‘zlar, aksincha grammatik xususiyatlarini butkul yo‘qotgan bo‘ladi. Nazarimizda, yuqorida keltirilgan *asalari, qo‘lqop* kabi so‘zlarda grammatik ko‘rsatkichlar mavjud emas, deb o‘ylaymiz. *Ko‘zoynak, simyog‘och, maxsikovush* kabi so‘zlar tarixan qaratqich va qaralmish birikuvidagi so‘z birikmasi bo‘lib, ular orasidagi qaratqich kelishigi va egalik qo‘shimchalari o‘z ahamiyatini yo‘qotgan. Bugungi kunga kelib, qo‘shma so‘z sifatida shakllangan. Bundan tashqari boshqa tilshunoslardan farqli ravishda M.Sharipov barcha qo‘shma so‘zlar ham so‘z birikmasi asosida yuzaga kelmagan degan, xulosani bildiradi [Sharipov, 1918, 28]. So‘z birikmasi va so‘z haqida fikr yuritganimizda yuqorida aytib o‘tilmagan yana bir farqli jihatini keltirib o‘tamiz. So‘zlar grammatik qoshimchalardan tashqari so‘z yasovchi qo‘shimchalarini olib, bir so‘zdan boshqa bir so‘z hosil bo‘ladi. So‘z birikmalari esa bir butun holda so‘z yasovchi qo‘shimchalarni qabul qila olmaydi. Ular faqat grammatik xususiyatlarga ega bo‘lgan qo‘shimchalar bilan birika oladilar.

So‘z birikmasi va gap

Bu birliklarning har biri o‘ziga xos grammatik qurilish va funksional xususiyatlarga ega bo‘lgan sintaksisning o‘rganish obyektidir. So‘z birikmalarining hosil bo‘lishida gap emas, aksincha gap qurilishida so‘z birikmalari muhim rol o‘ynaydi. So‘z birikmasi tushuncha ifodalaydi. Gap esa fikr ifodalaydi. Bu ularning farqli jihatlaridan biri hisoblanadi. Gap ham, so‘z birikmalari ham bir va undan ortiq

soʻzlardan tashkil topadi. Bu ularning umumiy oʻxshash xususiyatidir. Soʻz birikmalari gapga xos boʻlgan kesimlik shakllarini olganda yoki soʻz birikmalari tarkibidagi soʻzlar oʻrni almashganda gap boʻlib shakllanadi. Soʻz birikmasi va gap oʻrtasidagi farqli va oʻxshash xususiyatlarning shu va boshqa jihatlari tilshunolar tomonidan oʻrganib eʼtirof etilgan.

Yuqorida oʻzbek tilshunosligida soʻz birikmasi va unga yondosh boʻlgan til birliklari oʻrtasidagi munosabatlar tilshunolar tomonidan bildirilgan nazariy qarashlar hamda keltirilgan dalillar asosida koʻrib oʻtildi. Quyida esa soʻz birikmasigagina xos boʻlgan xususiyatlar va uning turli jihatlari, shu bilan birga bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda soʻz birikmasi tasnifi yuzasidan asoslangan bir-birini toʻldiruvchi hamda bir-biriga zid boʻlgan nazariyalarni tahlil qilgan holda, oʻz fikr-mulohazalarimizni bildirib oʻtamiz. Soʻz birikmasining gap va gapda tutgan oʻrnini adabiyotlarda keltirilgan tasniflar orqali tahlil qilamiz.

Soʻz birikmasi hokim soʻzning qaysi turkumga oid soʻz bilan ifodalanishiga qarab, ikki guruhga boʻlinadi: otli soʻz birikmasi, feʼlli soʻz birikmasi. Otli soʻz birikmasida hokim soʻz ot va otlashgan soʻzlar bilan ifodalanadi: *shaharning koʻchalari, hammasidan katta, chumchuqning chugʻur - chugʻuri, oʻquvchilarning beshtasi, beqiyos oʻlka, katta qishloq*. Feʼlli soʻz birikmasida hokim soʻz soʻf feʼl bilan ifodalanadi: *kitobni oʻqimoq, daftarga yozmoq, tez yugurmoq, ohista gapirmoq, taʼsirli soʻzlamoq, zavq bilan oʻqimoq*. Kelishik va egalik qoʻshimchalari hamda koʻmakchilar soʻz birikmalari tarkibida soʻzlarni bir - biriga bogʻlashga xizmat qiladi. Soʻz birikmalari tarkibidagi tobe va hokim soʻzning hech qanday qoʻshimchasiz, faqat ohang va maʼnosiga koʻra bogʻlanishi bitishuv deyiladi: *tez termoq, chiroyli gapirmoq, ishchan oʻquvchi, mehribon murabbiy*. Bitishuvda ergash soʻz vazifasida sifat, ravish hamda ular vazifasidagi boshqa soʻzlar keladi: *qizil gul, tez yurmoq*. Bosh soʻz ot va feʼl soʻz turkumidan iborat boʻladi. Tobe soʻzning hokim soʻzga qaratqich kelishigi qoʻshimchasi yordamida, hokim soʻzning esa tobe soʻzga egalik qoʻshimchalari yordamida bogʻlanishi moslashuv deyiladi:

kitobning muqovasi, xonalarning kattarog'i, bizning sinfirmiz, sizning ukangiz. Tobe so'zning hokim so'zga tushum, jo'nalish, o'rin - payt va chiqish kelishigi qo'shimchalari yoki ko'makchilar yordamida bog'lanishi boshqaruv deyiladi: do'stlarni hurmat qilmoq, g'alaba uchun kurashmoq, yoshlarga g'amxo'rlik qilmoq, sharoitga ko'ra yondashmoq [Anorbekova, Mirzayeva, 2011, 166].

Keyingi tadqiqot natijalarida ushbu tasnifning kengayganini ko'rish mumkin. So'z birikmalari qismlarining grammatik tabiatiga ko'ra tasnif qilinganda, hokim a'zoning qaysi so'z turkumidan ekanligi, tobe a'zoning sintaktik vazifasi asosga olinadi. So'z birikmalari hokim qismning qaysi so'z turkumidan ekanligiga ko'ra quyidagi turlarga ajratiladi: 1) otli birikma; 2) fe'lli birikma; 3) sifatli birikma; 4) ravishli birikma; 5) modal so'zli birikma. Otli birikmaning hokim so'zi vazifasida ot, otlashgan so'zlar keladi va u quyidagi ko'rinishlarga ega bo'ladi:

- Hokim qism vazifasida ot keladi: *g'ayratli odam, samimiy inson, ezgu niyatli kishi.*
- Hokim qism sifatida olmosh keladi: *bolaning o'zi, Karimaning o'zi.*
- Hokim so'z sifatida otlashgan sifat keladi: *kishilardan eng mardi, qizlarning sarasi.*
- Hokim qism vazifasida otlashgan son keladi: *talabalarning beshtasi, o'quvchilardan biri.*
- Hokim qism vazifasida otlashgan olmosh keladi: *tilaklarning barchasi, kutib oluvchilarning hammasi.*
- Hokim so'z vazifasida otlashgan sifatdosh keladi: *onamlarning aytganlari, bolalarning o'qiyotgani va h.k.*
- Hokim qism vazifasida otlashgan ravish keladi: *ko'p so'zning o'zi, ishlarning ko'pi.*
- Hokim so'z sifatida otlashgan undov so'z keladi: *ularning dod-voyi, bolalarning urasi.*

- Hokim soʻz vazifasida otlashgan taqlid soʻz keladi: *otlarning dupur-dupuri, toplarning gumbur-gumburi*.

Koʻrinadiki, otli soʻz birikmasi qismlari bitishuv, muvofiqlashuv va boshqaruv yoʻli bilan grammatik aloqaga kirishadi. Otli birikma soʻz shakli bilan soʻzning (leksemaning) yoki ikki soʻz shaklining bogʻlanishidan hosil boʻladi.

Feʼlli birikmaning hokim qismi feʼl bilan ifodalanadi: *tez ishlamoq, oldinda yurmoq kulib gapirmoq, diqqat bilan tinglamoq*. Feʼlli birikmaning qismlari oʻzaro bitishuv va boshqaruv yoʻli bilan bogʻlanadi. Feʼlli soʻz birikmasi soʻz shakl bilan soʻzning (leksemaning) oʻzaro bogʻlanishidan yuzaga keladi.

Sifatli birikmada hokim soʻz otlashmagan sifat bilan ifodalanadi, birikmaning qismlari boshqaruv yoʻli bilan sintaktik munosabatga kirishadi: *akasidan kuchli, singlisidan ziyakroq*.

Ravishli birikmaning hokim soʻzi otlashmagan ravish bilan ifodalanadi. Ravishli soʻz birikmalarida tobe va hokim qismlar oʻzaro boshqaruv yoʻli bilan bogʻlanadi: *raketadan tez, toshbaqadan sekin*.

Modal soʻzli birikma. Bunda modal soʻz birikmaning hokim soʻzi sifatida keladi. Birikma boshqaruv yoʻli bilan tuziladi: *bizga kerak, oʻquvchilarda bor*. Sifatli, ravishli, modal soʻzli birikmalar ham feʼlli birikma singari soʻzshakl bilan soʻz (leksema)ning oʻzaro bogʻlanishi natijasida hosil qilinadi.

Soʻz birikmalari tobe qismning sintaktik vazifasiga koʻra, quyidagi turlarga boʻlinadi: a) aniqlovchili birikma; b) toʻldiruvchili birikma; d) holli birikma.

Aniqlovchili birikma. Bunday birikmalarning tobe qismi aniqlovchining barcha turlari vazifasini bajaradi. Shunga koʻra ularni: 1) sifatlovchili birikma, 2) qaratuvchili birikma, 3) izohlovchili birikmalarga ajratish mumkin. Masalan: *yozma ish, ilmiy maqola, beshta kitob, allaqanday ovozlari* – sifatlovchili birikma; *iqtisodiyotning taraqqiyoti, maktab hovlisi* - qaratuvchili birikma; *oʻqituvchi Salimova, professor Qodirov* - izohlovchili birikma. Shuningdek, aniqlovchili birikma bitishuv va boshqaruv yoʻli bilan tuziladi.

To‘ldiruvchili birikma. Tobe qismi to‘ldiruvchi vazifasini bajaradigan so‘z birikmasi to‘ldiruvchili birikma deb yuritiladi. Bunda qismlar o‘zaro boshqaruv yo‘li bilan birikadi. Masalan: *yoshlarga nasihat qilmoq, odamlarni qadrlamoq, talabalar uchun darslik, ilm-fan haqida so‘zlamok.*

Holli birikma. Bu xil so‘z birikmalarining tobe qismi hol vazifasini bajaradi. Holli birikmaning tobe va hokim qismlari o‘zaro bitishuv yoki boshqaruv yo‘li bilan bog‘lanadi: *yangicha fikrlamoq, birga ishlamoq, maktabdan qaytmoq, erta boshlamoq.*

Shuni aytish kerakki, keltirilgan ushbu tasniflar an’anaviy tilshunoslik tadqiqotlarida yoritilgan. Bunda mazmuniy sintaktik munosabatlarni umumlashtirgan holda turlarga ajratilgan. So‘z birikmasiga oid munosabat turlari tahlil qilinib, quyidagicha turlarga ajratilgan:

- obyektli munosabat (to‘ldiruvchi-to‘ldirilmish munosabati);
- atributiv munosabat (sifatlovchi-sifatlanmish munosabati);
- kordinativ munosabat (qaratuvchi-qaralmish munosabati);
- ikki tomonlama munosabat [Mahmudov, Nurmonov, 1995, 18].

Atributiv birikma aniqlovchilik munosabati orqali hosil bo‘lgan birikmadir. Lekin predikativlik yo‘li bilan aniqlash bunga kirmaydi, chunki bunda belgi hukm yo‘li bilan bildiriladi, atributiv munosabatda esa predmetning belgisi o‘ziga qo‘shilib, bir murakkab tasavvur holida beriladi. Demak, bu birikma aniqlovchi va aniqlanmishdan hosil bo‘ladi. Atributiv birikma material jihatidan bir qancha ko‘rinishlarga ega:

- 1) Sifat + ot
- 2) ot + ot
- 3) son +ot
- 4) olmosh +ot
- 5) sifatdosh + ot va boshqalar.

Obyektli birikmaga boshqaruv yo‘li bilan bog‘lanish natijasida hosil bo‘lgan birikmalar kiradi. Bunda tobe elementning hokim so‘zga munosabati kelishik affikslari va ko‘makchilar yordami bilan ifodalanadi. Bular tobe holatdagi predmet-obyektning harakat, belgi bilan bo‘lgan munosabatini ko‘rsatadi.

Reletiv birikmaga tobe so‘zning hokim elementga bitishuv yo‘li bilan hosil bo‘lgan birikmalar kiradi. Bu harakat va uning belgisi ma’nosini, shularning munosabatini ifodalaydigan holli birikmadir. Bu birikmalarning material jihatdan ko‘rinishlari:

- 1) Ravish + fe’l
- 2) ravishdosh + fe’l
- 3) ot + fe’l [G‘ulomov, Asqarova, 1965, 17].

Ko‘rinadiki, har ikkala tasnifda ham so‘zlarning munosabatga kirishish yo‘llari va birikma turlari aytib o‘tilgan bo‘lib, avvalgi tasnifda obyektli munosabat bunda to‘ldiruvchi to‘ldirilmish asosidagi birikmalarga ishora qilgan bo‘lsa, keyingi tasnifda obyektli birikma bu boshqaruv yo‘li bilan hosil qilinadi deb ta’kidlangan bo‘lsada, aslida to‘ldiruvchili birikma nazarda tutilgan.

Atributli birikma uchun avvalgi tasnifda sifatlovchi sifatlanmish, keyingi tasnifda aniqlovchi aniqlanmish munosabati aytib o‘tiladi. Ikkinchi tasnifdagi fikr aniqroq deb o‘ylaymiz, chunki aniqlovchi faqat sifatlovchi sifatlanmishdan iborat emas, balki uning boshqa turlari ham mavjud bo‘lib, ularning barchasi atributli birikmaga xosdir deb o‘ylaymiz. So‘z birikmalarining grammatik xususiyatlari hamda so‘z birikmalarida so‘zlarning bog‘lanish usullariga ko‘ra bir qancha tasniflarni ko‘rib o‘tar ekanmiz, tilshunoslikka oid darslik va o‘quv qo‘llanmalarda so‘zlarning bog‘lanish usullari tasnifida boshqaruv yo‘li bilan bog‘langan so‘z birikmalari to‘g‘risida turli fikrlarni ko‘rish mumkin. Tobe so‘z vazifasida ravishdosh (*shoshilib gapirdi*), sifatdosh (*o‘qigan bola*) yuzaga chiqqan birikuv ham bitishuvli birikma sifatida qaraladi. Vaholanki, bu yerda ravishdosh ko‘rsatkichi [-ib] fe’lni fe’lga (*shoshilib gapirdi*), sifatdosh shakli -gan fe’lni otga (*o‘qigan bola*)

bog‘lash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, bularning morfologiyada lug‘aviy - sintaktik shakl sifatida qaralishi ham ular hosil qilgan birikuvni bitishuvli emas, balki boshqaruvli birikuv sifatida baholashni taqozo etadi. Boshqaruvni amalga oshirayotgan vositaga bog‘liq ravishda kelishikli boshqaruv, ko‘makchili boshqaruv, ravishdoshli boshqaruv, sifatdoshli boshqaruv kabi turga ajraladi [Sayfullayeva, Mengliyev, 2009, 309] Haqiqatdan ham sifatdosh va ravishdoshning -gan hamda -b, -ib qo‘shimchalari so‘zni so‘zga bog‘lashi ushbu yondoshuvning to‘g‘ri ekanini ko‘rsatadi. Bu o‘rinda shuni aytish kerakki, *Navoiy romani, Bobur ko‘chasi, ta’lim vazirligi* kabi birikmalar xoslik umumdan ajralganlik xususiyatiga ega bo‘lib, shaklan moslashuvga o‘xshasa-da, bitishuv yo‘li bilan bog‘langan deb qaraladi. Yuqoridagi birikmalarni ma’lum bir obyektga nomlab kelishini e’tiborga olsak, ushbu birikmalar so‘z birikmasi doirasida emas, balki alohida o‘rganishni taqozo etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilshunosligida so‘z birikmasi tuzilish strukturasi ko‘ra, grammatik munosabatga kirishishiga ko‘ra, ba’zi shakllarda so‘zga, ba’zi o‘rinlarda gapga tenglanishiga ko‘ra murakkab tuzilma hisoblanadi. Ular uchun ayni bir qolipni belgilab olish qiyin hisoblanadi. Shuningdek, so‘z birikmasi tarkibida o‘rganilayotgan nomli birikmalarni ham qayta ko‘rib chiqish zaruriyat kasb etadi. Bir so‘z bilan aytganda, so‘z birikmasi tasnifi va uni o‘rganish masalasi bugungi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anorbekova A., Mirzayeva Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2011.
2. G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. - Toshkent, 1965.
3. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). – Toshkent, 1995.

4. Muhiddinova H., Xudoyberganova D. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2006.
5. O‘zbek tili grammatikasi. II tom. (mualliflar jamoasi). – Toshkent, 1978.
6. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009.
7. Sharipov M. Hozirgi o‘zbek tilida so‘z birikmalari sintaksisi. – Toshkent, 1918.
8. Toshnazarova D., Ibragimova A. So‘z birikmalari ta’rifiga yangicha yondashuv. Til va adabiyot ta’limi jurnali, 4-son. – Toshkent, 2020.
9. M Kurbanova, Hozirgi zamon o'zbek tili (Sodda gap sintaksisi uchun materiallar)
2002